



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



JORJ ORUENING “MOLXONA” ROMANIDA IJTIMOIIY-SIYOSIIY MASALALARNING RAMZIIY YORITILISHI

Fozilova Gulsevar

JDPU filologiya fakulteti

o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy maslahatchi: G.Xamrayeva

Jorj Oruell (1903–1950) — ingliz yozuvchisi va jurnalisti bo‘lib, asosan realizm hamda satira yo‘nalishida ijod qilgan. U o‘z asarlarida jamiyatdagi adolatsizlik, totalitar tuzum va siyosiy manipulyatsiyani keskin tanqid qilgan. J.Oruellning ijodiy uslubi sodda, ta’sirchan va samimiy ifodasi bilan ajralib turadi. Yozuvchi 1945-yilda mashhur “Molxona” asarini yozgan. Asar XX asr adabiyotining eng ta’sirchan siyosiy allegoriyalaridan biri bo‘lib, unda totalitar tuzumning vujudga kelishi, uning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari va omma ongini boshqarish usullari ramziy obrazlar orqali badiiy ifodalanadi[2]. Asardagi qahramonlar, voqealar va jarayonlar bevosita tarixiy faktlarni takrorlamagan holda, ularning badiiy talqini sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa Oruell ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning universalligini ko‘rsatadi.

Unda hayvonlar hayoti orqali jamiyatdagi mansabparastlik, ikkiyuzlamachilik va yolg‘on siyosat ochib beriladi. Asar hayotning eng achchiq haqiqatlarini aks ettiradi: boshida hayvonlar ozodlik va tenglik uchun kurashadilar, ammo vaqt o‘tgan sari cho‘chqalar hokimiyatni o‘z qo‘liga olib, boshqalar ustidan hukmronlik qila boshlaydi. Odamlar hokimiyatga yetganida bergan va’dalarini unutishadi. “Shu paytgacha barcha hayvonlar teng yashashlarini istardik, lekin endi bizning oramizda ba’zilar boshqalardan tengroq bo‘lishi kerak”[1], — degan jumla hokimiyatni suiiste’mol qilish ramzidir. Oruell bu asar orqali insonlarni ogohlikka, haqiqatni aytishdan qo‘rqmaslikka va eng muhimi — insoniylikni asrashga chorlaydi. “Molxona” — bu xuddi hayot oynasi. Muallif hayvonlar obrazi orqali ijtimoiy hayotdagi muammolarni ramziy(allegorik) tarzda yaratgan. Jumladan, cho‘chqalar — mansabparast, nafsiga qul, lavozimini suiiste’mol qiluvchi rahbarlarning ramzi bo‘lsa, Baxsor ot — sadoqatli, mehnatkash xalqning ramzidir. U “Men ko‘p ishlashim kerak” degan so‘zni hayotiy shiorga aylantiradi. Sigirlar va qo‘ylar esa itoatkor, oson boshqariluvchi insonlarni timsoli. Masalan, qo‘ylarning “Napoleon doim haq!” degan so‘zlari ko‘r-ko‘rona ishonuvchanlikni ifodalaydi. Asarda hayvonlar va insonlar o‘rtasidagi konflikt yotadi. Bu konfliktning sababi insonlarning o‘z ehtiyoji uchun hayvonlardan foydalanishi, biroq ularning mehnatni qadirlamasligidadir. Natijada hayvonlar adolatsizlikka qarshi bosh ko‘taradi. Bu jarayon ramziy ma’noda jamiyatdagi tabaqalararo ziddiyatni ifodalaydi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: hayvonlar jamiyatmi?

Jamiyat – bu insonlarning birgalikdagi hayotini tartibga soluvchi ijtimoiy tizim bo‘lib, unda har bir a’zoning o‘rni, huquqi va mas’uliyati mavjud[3]. Oruell “Molxona” asarida jamiyatni ideal g‘oya sifatida emas, balki real hayotdagi adolatsizliklar, kuch va manfaat



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



to‘qnashuvlari hukm surgan tizim sifatida ko‘rsatadi. Uning badiiy maqsadi – hayvonlar obrazidan foydalanib, insoniyatning o‘z jamiyatidagi muammolarni ochib berishdir. Asarda inson va hayvon o‘rtasidagi farq asta-sekin yo‘qoladi. Hayvonlar insonlarga o‘xshab, ularning kiyimlarini kiyadi, yurish-turishlarini takrorlaydi, hatto yuz ifodalarida ham o‘xshashlik paydo bo‘ladi. Bu ramz hokimiyatning insoniyatni qanday o‘zgartirishini, insoniylikdan uzoqlashtirishini ifodalaydi. Oruell shu orqali hokimiyatning buzuvchi kuchini, axloqiy qadriyatlar ustidan g‘alaba qozonish jarayonini ochadi. “Molxona” – bu oddiy siyosiy tanqid emas, balki insoniyat ruhining inqirozi haqidagi ogohlantirishdir. Yozuvchi o‘z asari orqali shunday fikrni ilgari suradi: agar jamiyatda ongli, mustaqil fikrlaydigan, haqiqatni ayta oladigan insonlar yo‘qolsa, hokimiyat zulmga aylanadi. Asarning ramziy olami o‘quvchini o‘z hayoti, jamiyati va mas‘uliyati haqida o‘ylashga chorlaydi[4].

Romanning markaziy g‘oyasi — hokimiyatning nazoratsiz qolishi qanday qilib totalitar tuzumga aylanib borishini ko‘rsatishdir. Hayvonlar qo‘zg‘oloni natijasida vujudga kelgan erkin jamiyat dastlab tenglik va birdamlikka asoslangan bo‘lsa-da, hokimiyat cho‘chqalarning qo‘lida to‘planishi bilan ushbu g‘oyalar izdan chiqadi. Hokimiyatning buzilishi quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

1. Me‘yorlarning asta-sekin buzilishi — “Yetti qoida”ning birma-bir o‘zgartirilishi shaxsiy manfaatni qonunlashtirish vositasiga aylanadi.

2. Qo‘rqitish apparatining yaratilishi — Napoleon itlarni tarbiyalab, zo‘ravonlikni siyosiy qurolga aylantiradi.

3. Axborotni nazorat qilish — Squealer targ‘iboti orqali hayvonlar ongiga yangilanayotgan yolg‘onlar singdiriladi.

4. Dushman qiyofasini yaratish — Snoubolli barcha muammolarning sababchisiga aylantirish hukmronlikni mustahkamlovchi psixologik mexanizmdir.

Bu bosqichlar totalitar tizimning shakllanish mexanizmini o‘ziga xos tarzda ochib beradi. N. Karimov ta’kidlaganidek, “badiiy timsollar orqali tarixiy jarayonni mantiqiy soddalashtirib ko‘rsatish uni yanada ta’sirli qiladi” [5].

Boxer obrazi romanning eng achchiq va ta’sirli ramzlaridan biridir. U sof mehnat, fidoyilik va sadoqat timsoli bo‘lib, aynan shunday insonlar jamiyatni rivojlantiruvchi kuch ekanini eslatadi. Ammo totalitar tuzumda aynan mana shu qatlam ko‘proq aldangan, ekspluatatsiya qilingan va oxirida qurbon bo‘lgan qatlamga aylanadi. Boxerning soddaligi va siyosiy ongining pastligi uning fojiasiga sabab bo‘ladi. A.To‘rayevning fikricha, “Molxona”dagi boxer obrazi yozuvchining jamiyatning eng halol qatlamlari qanday aldab kelinganini ko‘rsatish maqsadiga xizmat qiladi [6].

Asarning mazmuni va ramziy yondashuvi Jonatan Swiftning “Gulliverning sayohatlari” asariga badiiy g‘oyaviy jihatdan yaqin. Masalan, Liliputliklar kichik bo‘lishiga qaramay, ularning mansab va hokimiyat uchun kurashi orqali siyosiy tizim tanqid qilinadi. Gulliver davlat hayoti bilan tanishadi. Ularning hayoti, yevropaliklar hayotidan umuman boshqacha tuzilgan bo‘ladi. U Lilliputiya da ikki partiya mavjudligini va biri ikkinchisidan har xil



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



balanlikdagi poshna kiyishi bilan farqlanishini bilib oladi. Ular orasida doim shavqatsiz baxslar kelib chiqaveradi. Oradan oz vaqt o‘tib Lilliputiya va Blefusku davlatlari o‘rtasida jang boshlanadi. Urushga sabab, pishgan tuxumni qaysi tarafidan (uchli tarafidanmi yoki tekis tarafidan) sindirgan ma’qulroqligi haqida baxs bo‘ladi [7]. Jonatan Svift bu bahslar va urushlarni qanchalik ahamiyatsiz ekanligini va jamiyat uchun foydaliroq ishlar bilan shug‘illanish maqsadga muvofiq bo‘lish g‘oyasini singdiradi. To‘rt qismdan iborat kitobida turli davlatlarning ahmoqona siyosiy tizimini kinoyaviy, ramziy ohangda ochib beradi.

“Molxona” roman finalidagi eng kuchli ramziy manzara — cho‘chqalar odamlar bilan bir xil bo‘lib qolishi. Bu jarayon siyosatning eng achchiq haqiqatini ko‘rsatadi: zulm yo‘q qilingani bilan, nazoratsiz hokimiyat yana zulmga aylanadi. Bu holat siyosiy inqiloblarining tarixiy takrorlanuvini, g‘oyaviy buzilishning muqarrarligini va jamiyatni boshqarishda adolatning o‘rnini yo‘qotish jarayonini umumlashtiradi.

Jorj Oruellning “Molxona” romani totalitarizmning paydo bo‘lishi, targ‘ibotning jamiyatga ta’siri, mehnatkash xalqning aldanganligi va siyosiy inqiloblarning ichki ziddiyatlarini allegorik shaklda teran ochib bergan badiiy asardir. Asar nafaqat o‘z davrining siyosiy muammolarini aks ettiradi, balki bugungi kunda ham har qanday jamiyatda yuz berishi mumkin bo‘lgan siyosiy jarayonlarga doir umumiy qonuniyatlarni yoritadi. Shuning uchun “Molxona” adabiy, siyosiy va falsafiy jihatdan universal ahamiyatga ega asar hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Oruell J. Molxona. — Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2017.
2. Husanov. A. XX asr jahon adabiyoti tarixi. — Toshkent: “O‘qituvchi”, 2005.
3. Rahimov. B. Adabiyotshunoslikka kirish. — Toshkent: “Cho‘lpon” nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2014.
4. Yo‘ldoshev. Q. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2013.
5. Saidov. S. “Jorj Oruell ijodida totalitarizm talqini”. // *Jahon adabiyoti*, 2016, №5.
6. To‘rayev. A. “Allegorik obrazlarning badiiy-falsafiy talqini”. // O‘zbek tili va adabiyoti, 2014, №3.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Gulliverning_sayohatlari